



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

TA'LIMDA MULTIMEDIALI VOSITALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Nurmatova Dilnozaxon Sharobiddin qizi

Farg'ona davlat universiteti 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar

Maqsudov Ulugbek Qurbonovich

Farg'ona davlat universiteti pedagogika kafedrasi

dotsenti, p.f.b.f.d(PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada multimedialni vositalar yordamida talabalarni o'qitishning afzalliklari, multimedialning texnik vositalari, axborot texnologiyalarining rivojlanishining ta'lim jarayoniga ta'siri va natijaviyligiga doir fikrlar yuritilgan.

Kalit So'zlar: multimedia, multimedialni ta'lim, multimedialni ta'lim dasturlari, kompyuterli muhit, virtual stend, matn, tovush, grafik va rasmlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются преимущества обучения студентов с помощью мультимедийных средств, мультимедийных технических средств, влияние и эффективность развития информационных технологий на образовательный процесс.

Ключевые Слова: мультимедиа, мультимедийное образование, мультимедийные образовательные программы, компьютерная среда, виртуальный стэнд, текст, звук, графика и картинки.

KIRISH

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayoniga joriy etilgandan so'ng multimedia vositalaridan foydalanish sezilarli darajada oshdi. Media ta'lim vositalari ta'lim muassasalari tomonidan keng qo'llaniladi. Ushbu o'rganish usuli keng tushunchalarni tushunishni osonlashtiradi va foydalanuvchilarga ularni an'anaviy o'qitish usullariga qaraganda kamroq vaqt ichida o'rganish imkonini beradi. Multimedialni texnologiya bir vaqtning o'zida ma'lumot taqdim etishning bir necha usullaridan foydalanishga qodir: matn, grafika, animatsiya, videotasvir va ovoz. Multimedialning eng muhim xususiyati interfaollik-axborot muhitida ishlash jarayonida foydalanuvchiga ta'sir o'tkaza olishga qodirlik hisoblanadi. Multimedia tushunchasi hayotimizga 90-asrning boshlarida kirib keldi. Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turli xil izohlamodalar. Ularning fikrlarini umumlashtirib multimedialni shunday ta'rif berish mumkin: multimedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an'anaviy va original turlari



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

asosida o'quv materiallarini o'quvchiga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir.

Multimedia tushunchalari juda xilma-xil bo'lib, ko'pincha har qanday vaqtda mavjud bo'lgan texnologiyaga bog'liq. Multimedia so'ziga o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha ta'rif berilgan: multimedia-[ing. media, medium- o'rta, markaz, vositalar, tadbirlar] axborot uzatishning xilma-xil vositalari (matn, ovoz, jonlantirilgan va grafik tasvirlar) ni qamrab oluvchi texnologiya va shunday texnologiyadan foydalanuvchi dasturlar va kompyuter vositalari. Dastlabki yillarda ta'riflar ikki yoki undan ortiq media vositalari haqida ma'lumotni o'z ichiga olgan bo'lsa, keyingi yillarda audio, musiqa, video, foydalanuvchi bilan o'zaro aloqa, foydalanish huquqi to'liq integratsiyalashgan birikmalar xususiyatlari bilan bir xil ma'noga ega bo'ldi.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim faoliyatida o'zgarishlarga olib keldi. Kompyuterlar va internet ta'limda darsliklardan interfaol foydalanish va multimedia dasturlarini qo'llash, turli xil o'rganish uslublariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun vizual va eshitiladigan tarzda boyitilgan elektron materiallar taqdimotini osonlashtiradi. Aytish mumkinki kompyuterli muhitda o'rganish, individual o'rganish tezligiga ko'proq mos keladi va eslab qolishga yordam beradi. So'ngi yillarda o'qitish muhitida tez-tez qo'llanadigan axborot va o'quv manbalaridan biri multimedia resurslaridir. Multimedia ko'p his-tuyg'ularni jalb qilish uchun yaratilgan. Multimediali ta'lim muhiti o'rganishni osonlashtiradi va oshiradi. Kompyuter muhitida multimedia texnologiyalari bilan boyitilgan real yoki virtual tasvirlar, matnlar, tovushlar, grafiklar va rasmlar malakali ta'lim dasturlarini tayyorlashga yordam beradi. Grafika, video, animatsiya va ovoz kabi turli xil vositalar birgalikda taqdim etilganda o'rganish muhitida farqlash orqali o'rganishni osonlashtiradi va oshirishi mumkin deb hisoblanadi.

AKT sohasidagi o'zgarishlar axborotni taqdim etish, qabul qilish almashish usullarini ham o'zgartirdi. Elektron o'quv materiallari vaqt va ishlash jihatdan ko'p afzalliklarga ega bo'lsada, ular qayta-qayta foydalanish, osonlik bilan almashish va ko'paytirish imkoniyatini ham taqdim etadi. Kompyuter va internet bilan o'zgargan va rivojlanishda davom etayotgan ta'lim muhitlarida qo'llaniladigan materiallar

tuyg'ularga murojaat qilishi tavsiya etiladi. Kurs materiallarini tayyorlashda, masalan, individual farqlarni hisobga olish (o'rganish uslubi, o'rganish tezligi va boshqalar) va keyin ularni talabalarga taqdim etish kabi ko'plab qiyinchiliklari mavjud.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

- Berilayotgan materialni chuqurroq, mukammalroq o'zlashtirish imkoni bor;



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

- Ta'lim olishning yangi sohalarini bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;
- Ta'lim olish vaqtining qisqarishi natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;
- O'qituvchi sinfda bo'lishi shart emas;
- Olingan bilimlarni kishixotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniga erishiladi.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumdirdir va vaqtdan yutishi mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolishi 25-30% oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi.

Multimedia vositalari yordamida axborotlarni matnli, tasvirli, tovushli va animatsiyali ko'rinishda namoyish etish mumkin. Multimediali axborot resurslari animatsiyali, audio va video ma'lumotlardan tarkib topadi.

MUHOKAMA

Multimedianing texnik vositalari vazifalariga ko'ra quyidagi turlarga bo'lib o'rganish mumkin:

- Nutqli axborotni kiritish chiqarish qurilmalari (mikrofon, kuchaytirgichlar, tovush kolonkalari);
- Video va grafik ma'lumotlarni kiritish qurilmalari (raqamli video kamera, raqamli foto kamera, TV-tyuner, modem);
- Ma'lumotlarni namoyish etish raqamli tasvir va videoaxborotlarni foydalanuvchiga namoyish etish qurilmalari (monitor, proyektor, video karta).

Kompyuter multimedia ma'lumotlarini turli formatlarda saqlaydi.

Grafika: Rasmlar, fotosuratlar, tasvirlar va boshqa san'at asarlari grafik deb ataladi. Kompyuter grafikasi kompyuter yordamida rasmlarni yaratish, tasvirlash, manipulyatsiya qilish va ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Grafika multimedianing eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir, chunki u orqali biz ma'lumotni rasm ko'rinishida tasvirlashimiz mumkin. Grafikning 2 turi mavjud: chiziqli chizma va tasvir.

Animatsiya: Animatsiya multimedianing eng dinamik shakllaridan biridir. Animatsiya chizmalar, obektlar, odamlar va h.k.larning harakatsiz tasvirlarini yozib olish orqali yaratiladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Audio: audio- bu nutq, musiqa va boshqa turdagi tovushlar. Ovoz elementi oddiy multimedia muhitini yaxshilash uchun ishlatiladi.

Video: Video yozuv bilan tasvirlar ketma-ketligini ko'rsatadi.

Multimediali kompyuterlar so'z, musiqa va boshqa ovozli ma'lumotlar hamda video ma'lumotlarni qabul qiladi va ular ustida ishlaydi. Multimedia texnologiyalari ta'lim rivojlanishining kafolati hisoblanadi. Multimedia texnologiyalari ta'lim jarayonini boyitadi, o'quv materialini ta'limiy axborotlarni idrok etishni yanada samaralashtirish imkonini beradi. Multimedia - bu zamonaviy va dasturiy vositalardan foydalanib, interaktiv dasturiy ta'minot boshqaruvi ostida o'zaro vizual va audiosamara ta'siridan iborat. Gipermedia - bu multimediali obektlarda qo'llaniladigan gipermatnli vositalar bilan bog'liq kompyuter fayllaridir. Ta'limni kompyuter va boshqa internet-texnologiyalaridan foydalanib tashkil etishda, turli afzalliklar bilan bir qatorda, ayrim kamchiliklar ham mavjud: bu aloqa liniyalari bilan bog'liq muammo bo'lishi mumkin. Mazkur muammolarni CD-ROM va DVD diskleri deb ataladigan optik kompakt disklar yordamida hal etish mumkin.

Ta'lim jarayonida virtual stendlardan foydalanish ta'lim sifati va samarasini oshirib, sarf- xarajatlarni kamaytiribgina qolmay, balki ekologik toza, xavfsiz muhit yaratilishi omili ham hisoblanadi. Multimedia stendlari vositasida o'quvchilar har qanday axborotni nafaqat ko'rib, balki eshitib ham xotiralarida saqlab qolishi osonlashadi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy multimedia texnologiyalarining joriy etilishi - ta'lim jarayonini axborotlashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biridir, hamda talabalar va o'quvchilarni intellektual rivojlantirish hamda jamiyatimizni ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiy ettirishning muhim shartidir.

Ta'limni rejalashtirish va boshqarishda o'qituvchilar rolining asosiy jihatlaridan biri to'g'ri ta'lim va o'quv maqsadlari uchun to'g'ri resurslarni tanlash qobiliyatidir.

Shunday qilib, o'qituvchilar undan foydalanish uchun sinfga borishdan oldin yaxshilab o'ylab, ba'zi qarorlar qabul qilishlari kerak. Pedagogika darslarini o'qitish bilan bog'liq qo'llaniladigan multimedia vositalari o'qituvchi nazorati ostida yoki amaliy foydalanish zarur.

Olimlarning fikriga ko'ra, o'qituvchilarning pedagogik strategiyalari ta'lim va o'qitishda AKTdan foydalanishning hal qiluvchi tarkibiy qismidir. Muammo o'qituvchilarni nafaqat imkoniyatlarga ishonishda, balki, talabalarning bilimni yaxshilash uchun ushbu vositalardan ularning o'zlari ham rejalashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Imkoniyatlar talabalarning ta'lim ehtiyojlariga mos kelishi va talabalar ularni idrok etishi va ulardan foydalanishi uchun ushbu o'quv muhitini boshqaradi. Ushbu vositalardan foydalanish natijasida o'qituvchi va talabalar uchun yangi rollar paydo bo'ladi. Talabalarni faolroq ishtirok etishga jalb qilish mumkin



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Ta'lim va o'qituvchilarning roli asosiy tashkiliy va boshqaruv vazifalariga vaqt sarflashdan ko'ra, o'zaro ta'sirlar orqali o'rganish imkonini berishga ko'proq e'tibor qaratiladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, texnologiyaning rivojlanishi o'quv ta'lim jarayoniga innovatsiyalar olib keldi va multimediali o'quv muhitini rivojlanishiga zamin yaratdi. Hozirgi kunda har bir kishining ish faoliyatida doimiy ravishda multimedidan foydalanish ehtiyoji mavjud. Multimedia texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanish ta'lim sifatini hamda ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

REFERENCES:

1. Джалалов, Б. Б. (2022). ВО 'LAJAK O 'QITUVCHILARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA SMART-TA'LIMNING IMKONIYATLARI. УЧИТЕЛЬ, 3(4).
2. Каримова, Б. Х. (2019). ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ У ВОСПИТАННИКОВ 2 КЛАССОВ ДОМОВ МЕХРИБОНЛИК НА ОСНОВЕ ХАДИСОВ. In EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY (pp. 35-37).
3. Максудов, У. К. (2015). Проблемы и перспективы инклюзивного образования. Молодой ученый, (22), 830-831.
4. Максудов, У. К. (2015). Социально-педагогические и экономические проблемы повышения качества непрерывного образования на основе внедрения национальных ценностей. Молодой ученый, (12), 776-777.
5. Максудов, У. К. (2018). Проблемы социальной активности молодёжи в духовно-нравственном воспитании. Молодой ученый, (46), 306-307.
6. Максудов, У. К. (2019). Развитие навыков социальной активности у учащихся начальных классов посредством фольклора-социально-педагогическая необходимость. Проблемы педагогики, (6 (45)).
7. Мамажонов, Ш. А., & Кизи, О. Н. Б. (2019). Формирование профессиональной компетенции преподавателя химии. Вестник науки и образования, (19-2 (73)), 31-33.
8. Сиддиқов, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2016). OBJECTIVES OF THE YOUTH ACTIVITY BY TEACHING TRAINING. Учёный XXI века, (6-2 (19)), 41-44.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

9. Шермухаммадов, Б. (2012). Использование различных методов, форм и средств в воспитании молодежи. Актуальные проблемы современной науки, (5), 80-83.